RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
<i>Sobirov Abdurasul Abdugafarovich</i>	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Hayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BREN DLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDBUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLASHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
<i>Salamov Islom Tashkazzakovich</i>	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
<i>Касимова Наргиза Сабитджановна</i>	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
<i>Isamuxamedov Boxodir Baxramovich</i>	
HUDUDIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
<i>Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi</i>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
<i>Sabirov Xamid Qo'ziboyevich</i>	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
<i>N.Bekmurodov</i>	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
<i>Gafurova Umida Fatixovna</i>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
<i>Fayziyev Orifjon Olimovich</i>	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
<i>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI.....	1310
<i>Mangliyev Bezzod To'raboy o'g'li</i>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
<i>Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich</i>	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
<i>I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova</i>	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
<i>Usmanova Zumrad Islamovna</i>	
"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
<i>Haqnazarova Yulduz Juraqulovna</i>	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
<i>Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич</i>	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
<i>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</i>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
<i>Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li</i>	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
<i>Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi</i>	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
<i>Umurzak Ablakulovich Radjabov</i>	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li
Qarshi xalqaro universiteti v.v.b. dotsenti
E-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com
ORCID: [0009-0002-5954-3942](https://orcid.org/0009-0002-5954-3942)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda jismoniy shaxslar tomonidan yer solig'ini hisoblash va to'lash sohasida mavjud muammolar tahlil qilinadi. Unda yer solig'ining mahalliy budjet daromadlaridagi ahamiyati, soliqqa tortish tizimining hozirgi holati, raqamlashtirish jarayonlari hamda soliq ma'muriyatchiligidagi yangiliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yer solig'i sohasidagi asosiy kamchiliklar — yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi, huquqiy maqomning noaniqligi, soliq qarzdorliklari hamda soliq madaniyatining pastligi — aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, yer solig'i tizimini rivojlantirishga qaratilgan amaliy va normativ tavsiyalar keltirilgan bo'lib, ular mahalliy budjet daromadlarini oshirish va yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yer solig'i, jismoniy shaxslar, soliqqa tortish tizimi, mahalliy budjet, soliq ma'muriyatchiligi, soliq siyosati, soliq stavkalari, yer resurslari, soliq undirish mexanizmi, soliq bazasi.

Abstract. This article analyzes the existing problems in the field of calculation and payment of land tax by individuals in Uzbekistan. It examines the importance of land tax in the formation of local budget revenues, the current state of the taxation system, digitalization processes, and innovations in tax administration. The main shortcomings in the land tax system are identified, including the absence of a unified database, uncertainty of legal status, tax arrears, and a low level of tax culture. Proposals for eliminating these issues are developed. In addition, practical and regulatory recommendations for improving the land tax system are presented, aimed at increasing local budget revenues and promoting the efficient use of land resources.

Key words: land tax, individuals, taxation system, local budget, tax administration, tax policy, tax rates, land resources, tax collection mechanism, tax base.

Аннотация. В данной статье анализируются существующие проблемы в сфере исчисления и уплаты земельного налога физическими лицами в Узбекистане. Рассматриваются значение земельного налога в формировании доходов местного бюджета, современное состояние системы налогообложения, процессы цифровизации и инновации в налоговом администрировании. Выявлены основные недостатки в сфере земельного налога — отсутствие единой базы данных, неопределённость правового статуса, налоговая задолженность и низкий уровень налоговой культуры, а также предложены меры по их устранению. Кроме того, представлены практические и нормативные рекомендации по развитию системы земельного налога, направленные на увеличение доходов местных бюджетов и стимулирование эффективного использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: земельный налог, физические лица, система налогообложения, местный бюджет, налоговое администрирование, налоговая политика, налоговые ставки, земельные ресурсы, механизм взимания налога, налоговая база.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida O'zbekistonda soliqqa tortish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi, davlat soliq xizmati organlarining raqamlashtirilishi hamda "Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti" kabi innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi mamlakat soliq tizimini yanada samarali va shaffof qilishga xizmat qilmoqda.



Biroq, ayniqsa, yer solig'i sohasida hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud:

1. Yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi va yer uchastkalari hisobining to'liqligi masalasi.

Yer uchastkalari to'g'risidagi aniq va to'liq ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi, ularga egalik huquqi hamda foydalanish holatini real vaqt rejimida aks ettirish imkoniyatining cheklanganligi soliq bazasini shakllantirishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, yer solig'i bazasining to'g'ri shakllanmasligiga hamda soliqlarni undirishda kamchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Yagona va tizimli kadastr tizimini yaratish orqali yer solig'i bazasining aniqligini oshirish zarur.

2. Huquqiy maqom va ma'lumotlarning yangilanishidagi kamchiliklar.

Ayrim hududlarda yer maydonlariga nisbatan soliq to'lovchilarning huquqiy maqomi aniq belgilanmaganligi, yer kadastr ma'lumotlarining muntazam ravishda yangilanmasligi soliq tushumlarining past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi ishonch darajasini pasaytiradi hamda soliq siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Soliq qarzdorliklari va undirish mexanizmlarining samaradorligi.

Yer solig'i bo'yicha qarzdorlik darajasi yuqori bo'lib, undirish mexanizmlari yetarli darajada samarali emas. Bu esa moliyaviy intizomning susayishiga, nazorat tizimidagi zaifliklarga hamda qonuniy choralarni qo'llashdagi sustkashlikka olib kelmoqda. Shu bois undirish tizimini kuchaytirish, samarali monitoring mexanizmlarini joriy etish va javobgarlik choralari takomillashtirish zarur.

4. Soliq madaniyati va axborot yetishmasligi.

Aholi hamda tadbirkorlar orasida soliq madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, soliq majburiyatlari haqida axborotning yetarli emasligi natijasida soliq to'lovlarini kechiktirish holatlari uchramoqda. Soliq siyosatini keng targ'ib qilish, axborot kampaniyalarini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilarga qulay elektron xizmatlarni kengaytirish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yer solig'i tizimida jismoniy shaxslarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ko'plab mamlakatlarda ular yer solig'i to'lovchilarining asosiy qismini tashkil etadi. Jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovlari orqali mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda ishtirok etadi hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi.

Nobel mukofoti laureati Stiglitzning soliq siyosatiga oid ilmiy ishlari yer solig'ining iqtisodiy samaradorligi va adolatliligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. U soliq yukining teng taqsimlanishi, ayniqsa jismoniy shaxslar o'rtasida to'lov qobiliyatiga qarab differensiallashuvi zarurligini ta'kidlaydi. Yer solig'i mol-mulkka egalik darajasiga mos ravishda adolatli va aniq belgilanishi lozim. Soliq tizimining progressivligi kam daromadli qatlamlarni himoya qilishi, yuqori daromadli shaxslardan esa ko'proq soliq undirilishini ta'minlashi kerak.

Stiglitzning fikricha, yer solig'i investitsiyalarni rag'batlantirishi va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashi zarur. Shu bilan birga, soliq tizimi murakkab bo'lmasligi hamda ortiqcha byurokratik xarajatlarni yuzaga keltirmasligi lozim.

Dye va England tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yer solig'ining uy-joy narxlari hamda yashash joyini tanlash qarorlariga ta'sirini tahlil qiladi. Ularning xulosalariga ko'ra, soliq stavkalari va yerga soliq solish mexanizmi uy-joy bozori dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori soliq yukining mavjudligi uy-joy xarid qilish jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, yer solig'ining darajasi jismoniy shaxslarning migratsion qarorlariga ta'sir etib, ayrim hududlarda aholi zichligining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

William Fischel yer solig'ini xususiy mulk instituti bilan bog'liq holda tadqiq etgan. Uning ta'kidlashicha, yer solig'i jismoniy shaxslarning mulkka bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Soliq darajasining haddan tashqari yuqoriligi investitsion faollikni pasaytirishi mumkin. Shu bois yer solig'i barqaror, tushunarli va adolatli bo'lishi zarur, aks holda yer bozorida nomutanosibliklar yuzaga keladi.

Oates yer solig'ini mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbalaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, jismoniy shaxslarning yer solig'i to'lovlari mahalliy infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun yer solig'i siyosati mahalliy darajada samarali boshqarilishi lozim.

David Jaeger yer solig'ining ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda tengsizlikni kamaytirishdagi rolini o'rgangan. Uning fikricha, yer solig'ining progressiv xususiyatga ega bo'lishi ijtimoiy tengsizlikni qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kam mulkka ega yoki yer egasi bo'lmagan shaxslar uchun bu muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosati yerga egalik darajasidagi tafovutlarni yumshatishi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham O'zbekiston sharoitida yer resurslarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo'llanilishi hamda soliqqa tortish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Biroq, mavjud ilmiy izlanishlar bugungi kunda respublikamizda cheklangan tabiiy resurslarni soliqqa tortish bilan bog'liq ayrim muammolarni to'liq hal etish uchun yetarli emas. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i hamda uning soliq tizimidagi o'rni bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, yer solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish jarayonida mahalliy soliq tizimini takomillashtirish hamda mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining barqaror va to'liq undirilishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy barqarorligiga hamda budjet mablag'larining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yer solig'ining asosiy vazifasi mahalliy budjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga, yer solig'i quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi;
- tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi;
- turli sifatdagi yerlarda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni muvozanatlashtirishga yordam beradi;
- aholi yashaydigan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlaydi;
- yer resurslaridan samarasiz foydalanishning oldini oladi.

Yer solig'i tizimida davlat mulkdorlarining faoliyati ikki jihatdan ko'rib chiqiladi.

Birinchi yo'nalish — foydalanilmayotgan yoki kam foydalanilayotgan yerlar.

Mulkdorlarga tegishli, ammo foydalanilmayotgan yoki yetarli darajada foydalanilmayotgan yer uchastkalariga qonunchilik asosida soliq solinadi. Bu orqali yer egalari yer resurslaridan samarali foydalanishga undash maqsad qilinadi.

Ikkinchi yo'nalish — faol xo'jalik yuritilayotgan yerlar.

Davlat tomonidan xo'jalik faoliyati olib borilayotgan yerlar uchun soliq solish mexanizmi orqali yer resurslaridan oqilona foydalanish rag'batlantiriladi. Mazkur yondashuv yer egalari tomonidan yer uchastkalaridan samarali foydalanishni ta'minlash bilan birga, mulkdorlik huquqlarining takomillashuviga ham xizmat qiladi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida yer solig'ining to'g'ri hamda samarali undirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yer solig'i nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois yer solig'i siyosatini takomillashtirish, soliq mexanizmlarini samarali tashkil etish hamda mulkdorlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash orqali mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash mumkin.

Yer solig'ining vazifasi moliyaviy nuqtai nazardan rag'batlantiruvchi va nazorat funksiyalarini bajarishdan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan esa fiskal funksiyani amalga oshirishdan iborat.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlar barqarorligini ta'minlash zarurati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda yer solig'ining amal qilishini taqozo etadi.

Yer solig'ining obyektiv zarurligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy mohiyati soliqqa tortiladigan yer uchastkasidan foydalanish natijasida muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinadigan o'rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishga qaratilgan mexanizm sifatida izohlanadi.

Soliq miqdorlarini yer sifati hamda tabiiy-iqlim zonalari bo'yicha tabaqalashtirish maqsadida sug'oriladigan yerlar uchun soliq stavkalari ma'muriy tumanlar kesimida, tuproqning ball-bonitet ko'rsatkichlari asosida 10 daraja bo'yicha belgilanadi. Tuproq boniteti dehqonchilikning amaldagi darajasida qiyosiy tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, sug'orish muddati, agroiqlimiy resurslar bilan ta'minlanganligi, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi, eroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda boshqa tabiiy xususiyatlari inobatga olinadi. Tuproq boniteti 100 ballik tizim asosida aniqlanadi.

Lalmi yerlar va yaylovlar tabiiy zonalar yoki vertikal mintaqalarga ajratiladi. Bu hududlarda yog'in miqdori va tabiiy namlik darajasi turlicha bo'lib, yer unumdorligi mazkur omillarga bevosita bog'liqdir.

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalari uchun soliq miqdorini tabaqalashtirish maqsadida ma'muriy va sanoat markazlari atrofidagi hududlarda soliq stavkalariga 1,1 dan 1,3 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hududlar kesimida o'rganishda uning mahalliy budjet daromadlaridagi ulushi va salmog'ini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tegishli ma'lumotlar o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda davlat budjeti tarkibida yer solig'ining salmog'i¹ (mlrd so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami soliq daromadlari	103 561,7	127 970,4	148 388,3	165 917,9	197 642,8
Mahalliy budjetga tushadigan yer solig'i	2 389,7	4 060,5	5 328,8	6 890,1	7 171,1
Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	1 079,9	1 524,2	1 883,9	2 872,0	2 895,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jami soliq daromadlari 2020-yildan 2024-yilgacha barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 103 561,7 mlrd so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 197 642,8 mlrd so'mga yetgan. Bu taxminan 90,8 foizlik o'sishni anglatadi. Mazkur o'sish iqtisodiy faollikning oshgani hamda soliq yig'ish samaradorligining yaxshilangani bilan izohlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i tushumlari ham sezilarli darajada oshgan. Jumladan, 2020-yilda 1 079,9 mlrd so'mni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 2 895,6 mlrd so'mga yetgan. Bu qariyb 2,7 barobar o'sishni ko'rsatadi. Ushbu holat jismoniy shaxslarning yer mulkiga egalik qilish va undan foydalanish jarayonida soliqqa tortish mexanizmlarining faollashganini bildiradi.

Yer solig'i tushumlari, ayniqsa, 2022–2023-yillarda sezilarli darajada oshgan. 2023-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 2 872,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan qariyb 52 foizga oshgan. Bu esa soliq ma'muriyatchiligining takomillashuvi, raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi, nazorat mexanizmlarining kuchayishi hamda soliqqa tortish tizimi samaradorligining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, so'nggi 5 yil davomida yer solig'i ko'rsatkichlari barqaror o'sishda bo'lib, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i sezilarli darajada oshgan. Kelgusi yillarda ham yer solig'ini samarali boshqarish, soliq bazasini kengaytirish va ma'muriyatchilikni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida yer solig'ining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda uning soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri, budjet daromadlaridagi hissasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida bevosita soliqlar stavkalari pasaytirilgan bo'lsa-da, yer solig'i stavkalari bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda. Bu esa uning mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

- Soliqqa tortish amaliyotida bo'sh turgan yer maydonlari egalari nisbatan ta'sir choralarining kuchaytirilishi yer resurslarining iqtisodiy ahamiyati yuqoriligini namoyon etadi.

- Yer solig'i, odatda, soliq to'lovchining joriy iqtisodiy faoliyati natijalariga bevosita bog'liq bo'lmaydi.

- Yer solig'i davlat daromadlarining barqaror va nisbatan ishonchli manbalaridan biri hisoblanadi.

- Yer resurslarini soliqqa tortishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

- Mahalliy budjetlar o'z xarajatlarini asosan o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga o'tayotgan sharoitda yer solig'i tushumlarining barqaror ulushini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar hisobini yurituvchi yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi yer solig'ini hisoblash va undirish jarayonida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega fuqarolarning aniq va tizimli hisobi yuritilmasligi, natijada prognoz ko'rsatkichlarining to'liq bajarilmasligi;

- yer solig'idan ozod etish tarzidagi imtiyozdan bir shaxs tomonidan turli tumanlarda joylashgan bir nechta obyektlar bo'yicha foydalanilishi holatlarining yuzaga kelishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, jismoniy shaxslar tomonidan yer solig'ini hisoblash va to'lash jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, mustaqillikka erishilgan davrdan buyon yer resurslarini soliqqa tortish bilan bog'liq ayrim normalarning yetarli darajada takomillashtirilmaganligi, yer uchastkalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalangan shaxslarga nisbatan ta'sir choralarining yetarlicha qo'llanilmaganligi, fuqarolarning soliq imtiyoziga egaligini tasdiqlovchi hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etuvchi tashkilotlar bilan o'zaro axborot almashinuvi tizimining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi hamda yer solig'i stavkalarini

1 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



belgilash mexanizmining zamon talablari asosida muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilmaganligi ushbu muammolarning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Yer solig'i tizimidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va uni yanada takomillashtirish maqsadida respublikamizda erishilgan natijalar, mavjud muammolar hamda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda bir qator takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, soliq organlari hamda mahalliy soliq qarorlarini yaratish orqali ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligini ta'minlash zarur. Shuningdek, yer uchastkalariga adolatli soliq solish hamda yer solig'ining mahalliy budjet daromadlaridagi ulushini oshirish maqsadida tomorqa xo'jaliklarida foydalaniladigan yerlar bo'yicha alohida soliq tartibini joriy etish lozim. Yer maydoni ikki tuman hududiga tegishli bo'lgan subyektlar uchun yer solig'ini ro'yxatdan o'tgan tuman budjetiga to'lash, hisobotlarni esa aynan o'sha tuman soliq organiga taqdim etish va boshqa tuman soliq organiga belgilangan tartibda ma'lumotnoma yuborish tizimini joriy etish orqali takroriy tekshiruvlarning oldini olish mumkin.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslar tomonidan yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanilmagan yoki maqsadsiz foydalanilgan, shuningdek 2-yil va undan ortiq muddat davomida qurilish ishlari yakunlanmagan holatlarda 3-yildan boshlab soliq summasiga 2 baravar, 4-yildan boshlab 3 baravar va keyingi yillarda oshib boruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash tartibini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, yer solig'ini normativ hamda bozor (haqiqiy) qiymati asosida soliqqa tortish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish ham ijobiy natija berishi mumkin. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'ini o'rniga yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish masalasini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Yer uchastkalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalangan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish ham tizim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslar yer solig'i sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, samarali axborot almashinuvi tizimini yaratish, soliq stavkalarini optimallashtirish hamda javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Soliq tizimini ilg'or xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2005). The limited role of the personal income tax in developing countries.
2. Dye, R. F., & England, R. W. (1991). Assessing the effects of property taxation on the housing market. *Journal of Real Estate Finance and Economics*.
3. Fischel, W. A. (1985). The economics of zoning laws: A property rights approach.
4. Jaeger, D. A. (2007). Property taxation and inequality. *National Tax Journal*.
5. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public finance in theory and practice*. New York: McGraw-Hill.
6. Oates, W. E. (1987). The theory and practice of local public finance. In A. J. Auerbach & M. Feldstein (Eds.), *Handbook of Public Economics*.
7. OECD. (2022). *Revenue statistics*. Paris: OECD Publishing.
8. Stiglitz, J. E. (2000). *Economics of the public sector* (3rd ed.). New York: W. W. Norton & Company.
9. Tanzi, V. (2000). *Taxation in an integrating world*. Washington, DC: Brookings Institution Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>